

4/696
Самарқанд

**RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN TRAVMATOLOGIYA VA
ORTOPEDIYA ILMIY AMALIY TIBBIYOT MARKAZI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.04/30.12.2019.Tib.62.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI

NARQULOV MAQSUDJON SAIDQOSIMOVICH

**KO'KRAKNING PASTKI VA BEL UMURTQALARINI ASORATSIZ
PARCHALANIB KOMPRESSION SINISHLARINI DAVOLASH
USLUBINI TAKOMILLASHTIRISH**

14.00.22 - travmatologiya va ortopediya

**TIBBIYOT FANLARI FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

TOSHKENT-2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of Dissertation abstracts of Doctor of Philosophy (PhD)

Narqulov Maqsudjon Saidqosimovich

Ko'krakning pastki va bel umurtqalarini asoratsiz parchalanib
kompression sinishlarini davolash uslubini takomillashtirish..... 3

Наркулов Максуджон Саидкосимович

Совершенствование метода лечения компрессионных неосложненных
переломов нижних грудных и поясничных позвонков..... 21

Narkulov Maksudjon Saidkosimovich

Improving the method of treating compression fractures of the lower
thoracic and lumbar vertebrae without complications..... 39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of publisheworks..... 44

**RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN TRAVMATOLOGIYA VA
ORTOPEDIYA ILMIY AMALIY TIBBIYOT MARKAZI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.04/30.12.2019.Tib.62.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI

NARQULOV MAQSUDJON SAIDQOSIMOVICH

**KO'KRAKNING PASTKI VA BEL UMURTQALARINI ASORATSIZ
PARCHALANIB KOMPRESSION SINISHLARINI DAVOLASH
USLUBINI TAKOMILLASHTIRISH**

14.00.22 - travmatologiya va ortopediya

**TIBBIYOT FANLARI FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

TOSHKENT-2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3 PhD/Tib3061 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat tibbiyot universiteti travmatologiya va ortopediya kafedrasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.uzniito.uz), «Ziynet» Axborot-ta'lim portalida www.ziynet.uz) va Milliy axborot agentligi portalida (www.uza.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy raxbar:

Urinboev Payzulla Urinboevich
tibbiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy taqrizchi:

Kolesov Sergey Vasillevich
tibbiyot fanlari doktori, professor
(Rossiya Federatsiyasi)

Xudoyberdiyev Qobil Tursunovich
tibbiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Akademik N.D. Batpenov nomidagi
Travmatologiya va ortopediya ilmiy
tekshirish instituti
(Qozog'iston Respublikasi)

Dissertatsiya himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Tib.62.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil « 11 » deyabr soat 10⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100147, Toshkent shahri Mahtumquli ko'chasi, 78-uy. Tel.: (+99871) 233-10-30; e-mail: niito-tashkent@yandex.ru, Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi majlislar zali).

Dissertatsiya bilan Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (75 -raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100147, Toshkent shahri Mahtumquli ko'chasi, 78-uy. Tel.: (+99871) 233-10-30.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil « 22 » aprel kuni tarqatildi.

(2024 yil « 21 » aprel da 75 raqamli reestr bayonnomasi).



M.E. Irismetov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
tibbiyot fanlari doktori (DSc), professor

U.M. Rustamova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, ilmiy kotibi,
tibbiyot fanlari doktori (DSc), katta ilmiy xodim

A.P. Alimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, tibbiyot fanlari doktori (DSc)

KIRISH (falsafa doktori dissertatsiyasiga annotatsiya (PhD))

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Umurtqa pog'onasining asoratlanmagan jarohatlarini davolash bo'yicha klinik ko'rsatmalarga ko'ra, umurtqa pog'onasining travmatik shikastlanishlari ulushi «...tayanch-harakat a'zolarining shikastlanishlari umumiy sonining 5,5%-17,8%, umurtqa pog'onasining shikastlanishlari orasida ko'krak umurtqalaridan bel umurtqalariga o'tish qismining ulushi (Th_{11-L_2}) jarohatlarning taxminan 58,4%ini tashkil qiladi»¹. Asosan jarohatlanganlar 18 dan 45 yoshgacha bo'lgan yosh, mehnatga layoqatli yoshdagi shaxslar tashkil etadi. Ko'krakning pastki va bel umurtqalarining asoratsiz sinishlarini davolash hozirgi zamonaviy travmatologiyada oxirigacha o'z yechimini topmagan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Umurtqa pog'onasi jarohatlanishlarining o'sib borishida transport, qurilish va sanoat yo'nalishlarini rivojlanib borishi katta ahamiyatga ega.

Dunyoda umurtqa pog'onasining asoratsiz sinishlarini erta tashxislash, konservativ va jarrohlik amaliyotiga bag'ishlangan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda: punksiyon vertebroplastika, turli metall konstruksiyalardan foydalangan holda stabilizatsiya, singan umurtqani tanasini implant bilan almashtirish, mini-invaziv operatsiyalar, endoskopik, neyronavigatsiya, rentgen vizualizatsiyasi va rekonstruktiv VCR xirurgik davolash usullari ustida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Muayyan davolash usuli uchun ko'rsatmalar ba'zan noaniq va qarama-qarshiliklar yuzaga kelmoqda. Biroq, jarrohlik usulida davolash natijalarining samaradorligi yetarli emasligi sababli, ko'krakning pastki va bel umurtqalarining asoratsiz sinishlarini davolash uchun jarrohlik usullarini optimallashtirish muhimligicha qolmoqda.

Mamlakatimizda tibbiy yordam xizmatining asosiy vazifalaridan biri tayanch-harakat tizimi shikastlangan aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini tubdan yaxshilash va kompleks maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iborat. Bularga «...sog'lom turmush tarzini shakllantirish va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish...»² kabi muhim vazifalar kiradi. Ko'krakning pastki (VTh_{11-12}) va bel (VL_{1-3}) umurtqalarini kompression parchalanib ($AO/Spine A2, A3$) sinishlarida jarrohlik usullarini optimallashtirish orqali umurtqa pog'onasi sinishlari bo'lgan bemorlarni davolashning anatomik va funktsional natijalarini yaxshilash travmatologiyaning hozirgi yo'nalishlaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 martdagi «Shoshilinch tibbiy yordam xizmatining faoliyatini tashkil etishni yanada takomillashtirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2838-son. 2017 — 2021 yillarda PQ-3071 «Ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishni yanada rivojlantirish» chora-tadbirlari to'g'risida, 2021 yil 12 apreldagi PQ-6-son «Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va sog'liqni saqlash sohasida

¹Ardashev I.P., Ardasheva E.I. Vertebral infection. Russian Journal of Spine Surgery (Khirurgiya Pozvonochnika). 2009;(2):068-078. (In Russ.) <https://doi.org/10.14531/ss2009.2.68-78>

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi» № PF – 4947 Farmoni

inson salohiyatini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», 2022 yil 16 iyundagi PQ-283-son «Aholiga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish to'g'risida», 2022 yilning 25 aprelidagi PQ-215-son «Birlamchi tibbiy yordamni aholiga yaqinlashtirish va tibbiy xizmat samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi qarorlari xamda mazkur sohada qabul qilingan boshqa me'yoriy-xuquqiyxujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VI. «Tibbiyot va farmakologiya» ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Umurtqa siniqlarining tibbiy ijtimoiy sotsial nuqtai nazardan ahamiyati katta. Umurtqa siniqlari tayanch-xarakat tizmining og'ir jarohatlaridan biri bo'lib, barcha siniqlar ichida o'rtacha 2% dan 7,7% gacha uchraydi (Feng F, Zhong X.,2020; Перих В.В., 2009; Афаунов А.А., 2009; Дулаев А.К.,2010). Umurtqa pog'onasining jarohatlarida ko'pgina davolash usullari mavjud. В.Г.Елизаров (1991) korsetli reclinotor bilan davolash usulini taklif qiladi. Bu konservativ davolash uslubida 20% gacha bemorlarda qoniqarsiz ko'rsatkichlar aniqlangan (Рамих Э.А., 2009). Bugungi kunda davolash arsenalida konservativ usul o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Umurtqa tanasini asoratsiz parchalanib sinishi, kompressiya hajmi 50% gachani tashkil etganda xam konservativ davolash mumkinligi qayd etgan (Тесленко С.А., 2018). Shu davolash usullariga qaramasdan, hozirgi kunga kelib umurtqa pog'onasining jarohatlari 35-53% gacha bemorlarni nogironlikga olib kelmoqda (Корж А.А., 2010). Umurtqa pog'onasini siniqlarini ananaviy konservativ davolash 21.2%dan 45%gacha qonikarsiz natija beradi, ya'ni kifotik deformatsiya, umurtqa tanasining to'liq tiklanmasligi va «surunkali xarakat buzilishi» sindromi yuzaga keladi (Шаповалов В.М., 2009). Oxirgi yillarda umurtqa tanasini A2, A3 (AO/Spine) tipidagi asoratsiz parchalanib kompression sinishlarida transpedikulyar osteosintezi (TPF) amaliyotda keng qo'llanilmoqda, lekin operatsiya va operatsiya oldi davrida siniq sohasidagi kifotik deformatsiyani to'liq bartaraf qilinmayapdi. Bugungi kungacha ko'pgina travmatologlar, neyroxirurglar va spinal markazlarida umurtqa tanasining parchalanib asoratsiz sinishlarida xar xil davolash uslublarini tanlab kelinmoqda, oqibatda davolash muddati va natijalarining bir xil guruhga oid bemorlarda har xil ko'rsatkichlar kuzatilmoqda (Колесов С.В., Пташников Д.А., Швец В.В., 2018, Lo Yon G., 2011, Wegows Ki., 2017).

Respublikamizda umurtqa pog'onasini asoratsiz parchalanib kompression sinishlarida konservativ davolash qonikarsiz natijalar yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Ko'krak va bel umurtqalari tanasi asoratsiz sinishini konservativ usul bilan davolash qoniqarli samara bermaydi. Bu usulning eng ahamiyatli kamchiligi shundan iboratki singan umurtqa tanasining ikkilamchi deformatsiyasining oldini olish va anatomik shaklini tiklash imkoniyatining yo'qligi kechki asoratlarga olib keladi.Oqibatda shikastlangan umurtqa tanasida kifotik deformatsiya paydo bo'lib, vaqt o'tishi bilan uning darajasi oshib boradi (Shaturunov Sh.Sh., 1998, Musaev

R.S., 2009). Urinbayev P.U., Pardayev S.N. (2000) larning ma'lumotlari bo'yicha, umurtqa pog'onasining I-II darajali turg'un kompression sinishlarini konservativ davolashda 1-1,9% gacha qoniqarsiz olganligi qayd etilgan. Umurtqa pog'onasi funksiyasining buzilishi quyidagi klinik xolatlarda kuzatiladi: doimiy og'riq sindiromi, umurtqalararo disk churrasini paydo bo'lishi, batamom yo'qolmaydigan kifotik deformatsiya, xayot sifatining buzilishi kabi asoratlarga olib keladi (Khudaiberdiev K.T., Jalilov F.R., Isakov B.M., Botirov N.T., Mamadjanov K.Kh., 2022). Respublikamizda bugungi kunga kelib, ko'krak va bel umurtqalarining shikastlanishlarida siniiq sohasidagi kifotik deformatsiyani interoperatsion bartaraf qilish va stabilizatsiya qilishning ko'plab raqobatbardosh usullari mavjud (Muminov M.D., Norov A.U., Nazimov J.T., Salomov V.B., Chuliev A.T., 2019).

Siniiq sohasidagi maxalliy kifotik deformatsiyaning kuchayishi bilan umurtqa pog'onasining orqa ustunida yuklamaning ortishi umurtqa faset bo'g'imlarda sezilar degenerativ o'zgarishlar namoyon bo'ladi. Bu degenerativ osteoartrit va faset bo'g'imlarining kontrakturasiga olib keladi, bu o'z navbatida siniiq sohasidagi sezilarli darajadagi og'riqni keltirib chiqaradi (Lin C.L., Chou P.H., Fang J.J., 2018). Siniiq sohasidagi kifotik deformatsiyani interoperation to'g'irlash jarayonida jarrohlik amaliyoti paytida umurtqa pog'onasiga ortiqcha distraksiya va kompressiya berish, orqa miyani faoliyatini yatrogen shikastlanishining asosiy sababidir (Dabney K.W., Ehrenshteyn M., Agresta C.A., Twiss J.L., Stern G., Tice L., Salzman S.K., 2004). Shu bilan birga, ochiq jarrohlik amaliyotini bajarish vaqtini cho'zilishi 100 daqiqadan oshsa, infeksiya jarroxat sohasiga tushish xavfi, nazorat guruhiga nisbatan (0,6%) 1,1%ga, ya'ni 50%ga oshishi aniqlangan (Bheeshma Ravi, Richard Jenkinson et. al., 2019). Yetarli darajada to'g'ri va adekvat davolashning yo'qligi umurtqa tanasi balandligining tiklanmasligi bu o'z navbatida umurtqa o'qidagi kifotik egrilikning kattalashiga olib keladi. Buning natijasida umurtqa oraliq disklarga, uning boylamlariga va umurtqa o'qiga tushadigan og'irlik kuchining taksimlinishi buzilishiga olib keladi. Bemorlarda bunday holat jarohatdan keyingi kifotik deformatsiya kelib chiqishi, umurtqa pog'onasi funksional yetishmovchiligiga olib keladi (Колесов С.В., 2006, Дулаев А.К., Шаповалов В.М., Гайдар Б.В., Елизаров В.Г., 2009). Shuning uchun shikastlangan umurtqa segmentida asoratlarning profilaktikasi zamonaviy umurtqa xirurgiyasining asosiy vazifasi hisoblanadi (Aganesov A.G., Mesxi K.T., Xeylo A.L., 2011). Ushbu ilmiy amaliy ish umurtqa pog'onasi parchalanib singan bemorlarni jarrohlik amaliyotigacha va amaliyotdan keyingi kelib chiqadigan asoratlarning oldini olishga, davolash natijalarni yaxshilash va asoratlar xavfini kamaytirishga qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining oliy o'quv yurti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat tibbiyot universiteti travmatologiya va ortopediya kafedrasida ilmiy –tadqiqot ishlari rejasida 2019-2023 yillar mobaynida «Ko'krakning pastki va bel umurtqalarini asoratsiz parchalanib kompression sinishlarini davolash uslubini takomillashtirish» mavzusi bo'yicha bajarilgan.

Tadqiqot maqsadiko'krakning pastki (VTh₁₁₋₁₂) va bel (VL₁₋₃) umurtqalari kompression parchalanib (AO/spine A2, A3) sinishlarida jarrohlik amaliyotigacha

umurtqa pog'onasini davolovchi qurilmani qo'llash orqali bemorlarni jarrohlik davolash natijalarini yaxshilash va asoratlari xavfini kamaytirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

ko'krak pastki (VTh_{11-12}) va bel (VL_{1-3}) umurtqalari kompression parchalanib (AO/Spine A2, A3) sinishlarida rentgenologik, MSKT, MRT tekshiruvlari natijalarini qiyosiy tahlil qilish;

AO/Spine bo'yicha A2, A3 tipidagi sinishlarda operativ davolashgacha (1-7 kunlarida), umurtqa pog'onasini reklinatsiya natijalarini baholash;

AO/Spine bo'yicha A2, A3 tipidagi sinishlarda an'anaviy va taklif etilgan davolash usulida davolangan bemorlar natijalarini tahlil qilish;

ko'krak pastki (VTh_{11-12}) va bel (VL_{1-3}) umurtqalari kompression parchalangan AO/Spine bo'yicha A2, A3 tipidagi sinishlarini jarrohlik usulida davolashda erta va uzoq muddatli natijalari hamda asoratlari tahlil qilish.

Tadqiqot ob'ektisifatida Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliyot tibbiyot markazi Samarkand filiali 2019-2023 yillarda davolangan 92 nafar ko'krakning pastki va bel umurtqalarini asoratsiz parchalanib (AO/Spine A2, A3) sinishlari bo'lgan bemorlar olingan.

Tadqiqot predmeti ko'krak pastki (VTh_{11-12}) va bel (VL_{1-3}) umurtqalari kompression parchalanib, AO/Spine bo'yicha A2, A3 sinishlari bo'lgan bemorlarni jarrohlik amaliyoti bo'yicha davolashda klinik, va rentgenologik, instrumental tadqiqoti natijalari hisoblanadi.

Tadqiqot uslublari sifatida klinik, rentgen, rentgenometriya (Kobb, Vinz), multispiral kompiyuter tomografiya, magnit-rezonans tomografiya va statistik uslublar qo'llanildi.

Ilmiy ishning yangiligi quyidagilardan iborat:

umurtqa pog'onasijarohatlarini davolovchi qurilma yordamida A2, A3 (AO/Spine) tipidagi ko'krak pastki (VTh_{11-12}) va bel (VL_{1-3}) umurtqalarini asoratsiz kompression parchalanib sinishlarini erta davrda reklinatsiya qilish orqali kifotik deformatsiyani operatsiya oldi bartaraf etish usuli ishlab chiqilgan;

ishlab chiqilgan davolash usuli umurtqa pog'onasini ortiqcha distraksiya va kompressiya berish, orqa miyaning yatrogen shikastlanishini, VCR rekonstruktiv jarroxlik amaliyotlarini oldini olishga, shuningdek jarrohlik vaqtini qisqartirishga imkon berishi isbotlangan;

ko'krak pastki (VTh_{11-12}) va bel (VL_{1-3}) umurtqalarini asoratsiz kompression parchalanib sinishlarida klinik va nurli tekshiruvlar natijalariga ko'ra davolash taktikasini bashorat qilishga asoslangan, bunda kifotik deformatsiyaning mavjudligi operatsiyagacha repozitsiya qilish usulini tanlash uchun asosiy mezon ekanligi isbotlangan;

ko'krak pastki (VTh_{11-12}) va bel (VL_{1-3}) umurtqalari kompression parchalangan (AO/Spine A2, A3), sinishlarida rentgenologik tekshiruvlarning sezuvchanligi 72%, o'ziga xosligi 69%, MSKT tekshiruvda sezuvchanlik 99%, o'ziga xosligi 99%, MRT tekshiruvda sezuvchanlik 93%, o'ziga xoslik 91,5% ekanligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi klinik, rentgenologik, rentgenometrik (Cobb, H. Vinz), multispiral kompiyuter tomografiya, magnit-rezonans tomografiya va statistik tahlil orqali asoslangan.

Tadqiqot natijalarining amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ko'krak pastki (VTh_{11-12}) va bel (VL_{1-3}) umurtqalari kompression parchalanib (AO/Spine A2, A3) sinishlarida an'anaviy rentgenologik tashxislash yetarli emasligi, ushbu turdagi sinishlarda MSKT va MRT tekshiruvlari o'tkazish amaliy jixatdan maqsadga muvofiq bo'lishi isbotlangan;

AO/Spine bo'yicha A2, A3 tipidagi sinishlarda operativ davolashgacha (1-7 kunlarida) umurtqa pog'onasining reklinatsiya natijalarini taqqoslab o'rgailganda erta 72 soatgacha murojaat qilgan 78,3% bemorlarda operatsiyagacha kifotik deformatsiyani Cobb bo'yicha $0<10^{\circ}$ qoldiq natijalar olinishi, 96 soatdan 168 soatgacha murojaat qilgan 21,7 nafar bemorlarda $10^{\circ}-20^{\circ}$ qoldiq deformatsiya qolishi aniqlangan;

AO/Spine bo'yicha A2, A3 tipidagi sinishlarda an'anaviy va yangi davolash usulida davolangan bemorlar natijalarini tahlil qilinganda, an'anaviy TPF davolash usuli bilan davolangan 52 nafar bemorlarda davolashning erta natijalari o'rganilganda, Oswetry bo'yicha 71,2% va uzoq natijalar tahlilida 21,1% og'ir buzilishlar (40-60%) bemorlarda saqlanib qolishi, taklif etilgan davolash usulida 40 nafar bemorlarning erta natijalarida 92,5%, uzoq natijalar tahlilida 95% bemorlarda Oswetry indeksi bo'yicha minimal (0-20%) va o'rta (21-40%) buzilishlar aniqlangan, natijada kompleks ishlab chiqilgan texnologiya bo'yicha davolash Oswetry bo'yicha bemorlarning hayot sifatini 92,5%ga yaxshilanishi isbotlangan;

ko'krak pastki (VTh_{11-12}) va bel (VL_{1-3}) umurtqalari kompression parchalanib, AO/Spine bo'yicha A2, A3 tipdagi sinishlarini jarrohlik uslubda davolashda erta va uzoq muddatli asoratlarini tahlil qilinganda, asosiy sabab siniq sohasida kifotik deformatsiyani 15' dan yuqori qolishi va erta jarrohlik amaliyotigacha reklinatsiya o'tkazilmasligi ekanligi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ko'krak pastki (VTh_{11-12}) va bel (VL_{1-3}) umurtqalarning AO/Spine bo'yicha A2, A3 tipidagi sinishlarda jarohatni dastlabki davrida taklif etilgan umurtqa pog'onasini davolovchi qurilma yordamida yopiq reklinatsiya o'tkazish orqali kifotik deformatsiyani jarrohlik amaliyotigacha to'g'irlash usuli ishlab chiqilganligi, bu umurtqa o'qini to'g'rilashi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati klinik va rentgenologik, MRT va MSKT ma'lumotlarini tahlil qilish asosida ishlab chiqilgan dasturidan foydalanib, ko'krak pastki (VTh_{11-12}) va bel (VL_{1-3}) umurtqalarning sinishida AO/Spine bo'yicha A2, A3 tipidagi sinishlarini davolashning funksional va anatomik natijalarini yaxshilashi, jarrohlik va umumiy davolanish vaqtini qisqartirishi, erta reabilitatsiyani boshlash va umurtqa pog'onasini funksiyasini to'liq tiklash imkonini berishi, operatsiyadan keyingi asoratlar sonini kamaytirishi va singan umurtqa tanasida qayta rekonstruktiv jarrxolik amaliyotlarini o'tkazishni qisqartiradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Samarqand davlat tibbiyot universiteti Ekspert kengashining 2023 yil 06 iyun 17-son xulosasiga kura Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy markazi Samarkand filialining (06.09.2019y.; №292), Navoiy viloyati Xatirchi tuman tibbiyot birlashmasi (13.06.2023y.; №3), Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani tibbiyot birlashmasi (22.12.2023y №138) amaliyotiga joriy etilgan.

birinchi ilmiy yangilik: umurtqa pog'onasi jarohatlarini davolovchi qurilma yordamida A2, A3 (AO) tipidagi ko'krak pastki (VTh₁₁₋₁₂) va bel (VL₁₋₃) umurtqalarini asoratsiz kompression parchalanib sinishlarini erta davrda reklinatsiya qilish orqali kifotik deformatsiyani operatsiya oldi bartaraf etish usuli ishlab chiqildi. ***Ilmiy yangilikning amaliyotiga joriy qilinishi*** Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy markazi Samarkand filialining (06.09.2019y.; №292), Navoiy viloyati Xatirchi tuman tibbiyot birlashmasi (13.06.2023y.; №3), Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani tibbiyot birlashmasi (22.12.2023y №138) amaliyotiga joriy etilgan. ***Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi quyidagilardan iborat:*** ko'krak pastki (VTh₁₁₋₁₂) va bel (VL₁₋₃) umurtqalarning AO/Spine bo'yicha A2, A3 tipidagi sinishlarda jarroxatni dastlabki davrida umurtqa pog'onasini davolovchi qurilma yordamida yopiq reklinatsiya (repozitsiya) o'tkazish tibbiyotning amalga oshirish bemorlarning jarrohlik usulida davolash 85% yaxshi natijalarga erishishga imkon beradi, bu esa ixtisoslashgan tibbiyot muassasalariga bemorlarni tashish bemorga birinchi tibbiy yordam ko'rsatilgandan keyin keyingi tibbiy evakuatsiya punktiga ko'proq malakali yordam ko'rsatish yoki rejalashtirilgan tartibda ko'chirish vaqtidagi asoratlarni oldini olish, jarrohlik amaliyoti vaqtiqtining qisqarishi, minimal asoratlar, stasionar davolanishning qisqa muddati va davolash sifatini yaxshiladi. ***Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi quyidagilardan iborat:*** 1) bemorning shifoxonadagi davri uchun: - bemorning shifoxonada qolish muddatini 11 kundan 8 kungacha qisqartirib, shifoxonada qolish to'lov miqdori taxminan 585 ming so'mga kamaytirdi (shifoxonada 1 kun qolish 195.000 so'mni tashkil qiladi); AO/Spine bo'yicha A2, A3 tipidagi sinishlarda jarroxatni dastlabki davrida umurtqa pog'onasini davolovchi qurilma yordamida yopiq reklinatsiya (repozitsiya) otkazish orqali kifotik deformatsiyani jarrohlik amaliyotigacha to'g'irlash jarrohlik amaliyotining davomiyligini qiskartirib ananaviy jarrohlik amaliyotidan farqi 1.700.000 so'm iqtisod qilishga imkon beradi; - bemorlarda TPF implantlarini sinishining kamayishi o'z navbatida metall moslamalar demontaj qilish reoperatsiyalarining kamayishi bilan farqini 10.600.000 so'mni tashkil etadi; 2) yuqoridagi ko'rsatmalar bo'yicha davolangan bemorlarning erta reabilitatsiyasini boshlash ularning vertikalizatsiyasi tezlashtiradi va keyinchalik nogironlik sabablarini bartaraf etish imkonini beradi. Xulosa: Ko'krak pastki (VTh₁₁₋₁₂) va bel (VL₁₋₃) umurtqalarning AO/Spine bo'yicha A2, A3 tipidagi sinishlarda jarohatni dastlabki davrida umurtqa pog'onasini davolovchi qurilma yordamida ixtisoslashgan tibbiyot muassasalariga bemorlarni tashish bemorga birinchi tibbiy yordam ko'rsatilgandan keyin keyingi tibbiy evakuatsiya punktiga ko'proq malakali yordam ko'rsatish yoki rejalashtirilgan tartibda ko'chirish

vaqtidagi asoratlarni oldini olish va shifoxonada davolanish davomiyligini qisqartirib 1ta bemor uchun 12.885.000 so'm iqtisod qilishga imkon berdi.

ikkinchi ilmiy yangilik: Ishlab chiqilgan davolash usuli kifotik deformatsiyani jarrohlik amaliyotigacha to'g'irlash ya'ni umurtqa pog'onasini ortiqcha distraksiya va kompressiya berish, orqa miyaning yatrogen shikastlanishini, bemorlarda kelib chiqadigan ogir ortopedik kifotik deformatsiyalarida bajariladigan VCR jarrohlik amaliyotlarini oldini olishga, shuningdek jarrohlik vaqtini qisqartirishga erishildi. Jarrohlik amaliyotigacha siniq sohasidagi kifotik deformatsiyani to'g'irlash amaliyoti. *Ilmiy yangilikning amaliyotiga joriy qilinishi* Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy markazi Samarkand filialining (06.09.2019y.; №292), Navoiy viloyati Xatirchi tuman tibbiyot birlashmasi (13.06.2023y.; №3), Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani tibbiyot birlashmasi (22.12.2023y №138) amaliyotiga joriy etilgan. *Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi quyidagilardan iborat:* Olingan natijalar ko'krak pastki (VTh₁₁₋₁₂) va bel (VL₁₋₃) umurtqalarning sinishida AO/Spine bo'yicha A2, A3 tipidagi sinishlarda jarrohlik amaliyoti vaqtida umurtqa pog'onasiga ortiqcha distraksiya va kompressiya berish, orqa miyani faoliyatini yatrogen asoratlarni 90% ga kamaytirish, VCR jarrohlik amaliyotlarini oldini olishga imkonini berdi, shu bilan birga davolash sifatini yaxshiladi. *Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi quyidagilardan iborat:* 1) bemorning shifoxonadagi davri uchun: - bemorning shifoxonada qolish muddatini 11 kundan 8 kungacha qisqartirib, shifoxonada qolish to'lov miqdori taxminan 585 ming so'mga kamaytirdi (shifoxonada 1 kun qolish 195.000 so'mni tashkil qiladi); AO/Spine bo'yicha A2, A3 tipidagi sinishlarda jarroxatni dastlabki davrida umurtqa pog'onasini davolovchi qurilma yordamida yopiq reklinatsiya (repozitsiya) otkazish orqali kifotik deformatsiyani jarrohlik amaliyotigacha to'g'irlash jarrohlik amaliyotining davomiyligini qisqartirib an'anaviy jarrohlik amaliyotidan farqi 1.700.000 so'm iqtisod qilishga imkon beradi; - bemorlarda TPF implantlarini siishining kamayishi o'z navbatida metall moslamalar demontaj qilish reoperatsiyalarining kamayishi bilan farqini 10.600.000 so'mni tashkil etadi; 2) yuqoridagi ko'rsatmalar bo'yicha davolangan bemorlarning erta reabilitatsiyasini boshlash ularning vertikalizatsiyasi tezlashtiradi va keyinchalik nogironlik sabablarini bartaraf etish imkonini beradi. *Xulosa:* Ko'krak pastki (VTh₁₁₋₁₂) va bel (VL₁₋₃) umurtqalarning sinishida AO/Spine bo'yicha A2, A3 tipidagi sinishlarda jarroxatni dastlabki davrida umurtqa pog'onasini davolovchi qurilma yordamida yopiq reklinatsiya (repozitsiya) qilish orqali kifotik deformatsiyani jarrohlik amaliyotigacha to'g'irlash usuli orqali amalga oshiriladigan jarrohlik amaliyoti usuli 1ta bemor uchun 12.885.000 so'm iqtisod qilishga imkon berdi.

uchinchi ilmiy yangilik: ko'krak pastki (VTh₁₁₋₁₂) va bel (VL₁₋₃) umurtqalarini asoratsiz kompression parchalanib sinishlarida klinik va nurlil tekshiruvlar natijalariga ko'ra davolash taktikasini bashorat qilishga asoslangan, bunda kifotik deformatsiyaning mavjudligi operatsiyagacha repozitsiya qilish usulini tanlash uchun asosiy mezon ekanligi isbotlandi. *Ilmiy yangilikning amaliyotiga joriy qilinishi* Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy markazi Samarkand filialining (06.09.2019y.; №292),

Navoiy viloyati Xatirchi tuman tibbiyot birlashmasi (13.06.2023y.; №3), Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani tibbiyot birlashmasi (22.12.2023y №138) amaliyotiga joriy etilgan. *Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi quyidagilardan iborat:* klinik va rentgenologik, MRT va MSKT ma'lumotlarini tahlil qilish asosida ishlab chiqilgan dastur foydalanib, ko'krak pastki (VTh₁₁₋₁₂) va bel (VL₁₋₃) umurtqalarning AO/Spine bo'yicha A2, A3 tipidagi sinishlarini funksional davolash taktikasini tanlash va anatomik natijalarini yaxshiladi, jarrohlik va umumiy davolanish vaqtini qisqartirdi, erta reabilitatsiyani boshlash va umurtqa pog'onasining funksiyasini to'liq tiklash imkonini berdi. *Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi quyidagilardan iborat:* -ko'krak pastki (VTh₁₁₋₁₂) va bel (VL₁₋₃) umurtqalarning AO/Spine bo'yicha A2, A3 tipidagi sinishlari diagnostikasi kopleksli bo'lishi va uning klinik va rentgen tekshiruvlarga asoslanib qabul qilingan ishlab chiqilgan dastur MSKT, MRT bilan to'ldirish tavsiya etilishi, rentgenologik, MSKT, MRT tekshiruvlarga ko'ra, ko'krak pastki (VTh₁₁₋₁₂) va bel (VL₁₋₃) umurtqalarning AO/Spine bo'yicha A2, A3 tipidagi sinishlari bo'lgan bemorlarni jarrohlik davolash usulini tanlash uchun ishlab chiqilgan dastur travmadan keyingi asoratlarni oldini olish uchun to'g'ri jarrohlik davolash taktikasini tanlashga imkon berish natijasida asoratlarni darajasini pasaytirish iqtisod qilish imkonini berdi. *Xulosa:* ko'krak pastki (VTh₁₁₋₁₂) va bel (VL₁₋₃) umurtqalarning AO/Spine bo'yicha A2, A3 tipidagi sinishlarini xirurgik davolashning optimallashtirilgan stabil miniinvaziv usulini tanlash taktikasini qo'llash noto'g'ri va qimmat davo turlarini qo'llamaslik hisobiga mablag'larni iqtisod qilishga imkon bergan.

to'rtinchi ilmiy yangilik: Ko'krak pastki (VTh₁₁₋₁₂) va bel (VL₁₋₃) umurtqalari kompression parchalangan (AO/Spine A2, A3), sinishlarida rentgenologik tekshiruvlarning sezuvchanligi 72%, o'ziga xosligi 69%, MSKT tekshiruvda sezuvchanlik 99%, o'ziga xosligi 99%, MRT tekshiruvda sezuvchanlik 93%, o'ziga xoslik 91,5% ekanligi aniqlandi. *Ilmiy yangilikning amaliyotiga joriy qilinishi* Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy markazi Samarkand filialining (06.09.2019y.; №292), Navoiy viloyati Xatirchi tuman tibbiyot birlashmasi (13.06.2023y.; №3), Qashqadaryo viloyati, Kasbi tumani tibbiyot birlashmasi (22.12.2023y №138) amaliyotiga joriy etilgan. *Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi quyidagilardan iborat:* ko'krak pastki (VTh₁₁₋₁₂) va bel (VL₁₋₃) umurtqalarning AO/Spine bo'yicha A2, A3 tipidagi sinishlarda jarroxatni dastlabki davrida ananaviy rentgen bilan birga MSKT va MRT tekshiruvlari o'tkazish amaliy jixatdan maqsadga muvofiq bo'lib. Bunda asosiy tekshiruv AO/Spine bo'yicha A2, A3 tipidagi sinishlar uchun 99% sezuvchanlik, o'ziga xoslik 99% bizga aniq tashxis qo'yishga imkon berishi aniqlandi. *Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi quyidagilardan iborat:* Ko'krak pastki (VTh₁₁₋₁₂) va bel (VL₁₋₃) umurtqalarning sinishida AO bo'yicha A2, A3 tipidagi sinishlarda jarroxatni dastlabki davrida rentgen bilan birga MSKT va MRT tekshiruvlarini o'tkazish orqali umurtqa pog'onasida qoniqarsiz natijalar ulushini 20,1% gacha kamaytirishga imkon beradi, yumshoq to'qimalarga kam jarohat yetkazish, asoratlarning kamayishi, stasionar davo muddatining qisqarishi, reabilitatsiya muddatlarining kamayishi, 84,9% xollarda

yaxshi natijalar olish imkonini beradi; Ushbu tekshiruvlar taklif etilgan davolash usulida foydalanish, ko'krak pastki (VTh_{11-12}) va bel (VL_{1-3}) umurtqalarning AO/Spine bo'yicha A2, A3 tipidagi sinishlarini differensial tashxislashda tekshiruv taktikasini tanlashga imkon berdi. Bemorlarni rentgenologik va rentgenometriya ko'rsatgichlari MSKT tekshiruvda 99% sezuvchanlik, o'ziga xoslik 99% differensial tashxislash imkon berdi. Masalan bir bemorga rentgen (80 000), MSKT (255 000), MRT (345 000) tekshiruvdan o'tkazilsa bemor umumiy xisobda 680 000 so'm sariflaydi. AO/Spine bo'yicha A2, A3 tipidagi sinishlarga rentgen va MSKT tekshiruv qilinishi 345 000 so'm iqtisod qilinadi. *Xulosa:* Ko'krak pastki (VTh_{11-12}) va bel (VL_{1-3}) umurtqalarning AO/Spine bo'yicha A2, A3 tipidagi sinishlarini operatsiya va operatsiyadan keying asoratlarni oldini olish va xirurgik davolashning optimallashtirilgan usulini tanlash taktikasini aniqlab berishi, noto'g'ri va qimmat davo turlarini qo'llamaslik hisobiga mablag'larni iqtisod qilishga imkon bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 2 ta xalqaro va 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda, muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 18 ta ilmiy ish, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar va asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola, jumladan 5 ta respublika va 2 ta xorijiy Scopus bazasidagi jurnallarda nashr etilgan. 1 ta ixtiroga (IAP)ga patent olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 ta bob, xotima, xulosalar, adabiyotlar ro'yxati, qisqartmalar ko'rsatkichi va ilovalardan iborat. Dissertatsiya xajmi 101 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning «**Kirish**» qismimavzuning dolzarbligi va zaruriyatiga asoslangan, izlanishning maqsadi va vazifalari, tadqiqot ob'ekti va predmeti, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligini ko'rsatadi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalarini bayon qiladi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyatini ochib beradi, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlarga bag'ishlanadi

Dissertatsiyaning «**Ko'krak va bel umurtqa qismlarida asoratsiz parchalanib kompression sinishlarni davolashning zamonaviy xolati (adabiyotlar sharxi)**» deb nomlangan birinchi bobi umurtqalarining parchalanib sinishi zamonaviy xolati, epidemiologiyasi, etio-patogenezi, diagnostikasi, tasnifi, kechish xususiyatlari, klinik alomatlari, mavjud davolash uslublari bo'yicha zamonaviy adabiyotlar tahliliga bag'ishlangan. Quidagi bob 6 qisimdan iborat.

Muallif umurtqa pog'onasida pastki ko'krak va bel umurtqalarning parchalanib (AO/Spine A2, A3) sinishida kifotik deformatsiyani kelib chiqish sabablari, konservativ davolashning salbiy oqibatlari, xirurgik davolashning esa

afzalliklari haqida to'liq ma'lumot beradi. Adabiyotlar ma'lumotlari bo'yicha kifotik deformatsiyasini interoperatsion bartaraf etiladi. Bunda quydagi distraksiya va kompressiya vaqtida orqa miyani yatrogen shikastlanishi asoratlar kelib chiqishi, faset bo'g'umlarini distraksiya xolatda qolishi, bemorlarda operatsiyadan keyin surinkali og'riqni bo'lishi, operatsiya vaqtini cho'zilishi kabi asoratlar kelib chiqishi (Chen K., Liu J., Assinck P., 2020) kabi ma'lumotlar keltirilgan.

Ilmiy ishda 178 ta adabiyotlarni tanqidiy tahlil qilib, zamonaviy davolash usullarini afzalliklari, ularning kamchiliklari va yangi ilmiy izlanishni asoslab bergan.

Dissertasiyaning «Ko'krak pastki (VTh₁₁₋₁₂) va bel (VL₁₋₃) umurtqalarining AO/Spine bo'yicha A2, A3 tipidagi sinishlarning klinik material va tadqiqot uslublari» deb nomlangan ikkinchi bobida dissertatsiya ishi 2019-2023 yillarda Respublika Travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy markazi, Samarqand filiali, umurtqa jarroxlik bo'limida bemorni tekshirish va davolash natijalariga asoslangan. Bemorlar AO/Spine bo'yicha A2, A3 tipidagi sinishlarning tasnifi asosida tashxislangan. Dissertatsiyada rentgenografiya, rentgenometriya (Cobb, H. Vinz), MSKT, MRT va statistik tadqiqotlar ma'lumotlari Excel 7,0 dasturlari orqali o'tkazilgan. Ko'krak pastki (VTh₁₁₋₁₂) va bel (VL₁₋₃) umurtqalarining parchalanib sinishlarni bo'lgan 92 nafar bemorlardan erkaklar 51 (55,4%), ayollar 41 (44,6%) ($p < 0,00001$) nafarni tashkil qiladi. Tadqiqotga kiritilgan bemorlarning yoshi 18 yoshdan 60 yoshgacha o'rtacha yoshi ($n=44,7$) $\pm 1,7$ ($p < 0,05$) yilni tashkil qiladi. Jins jihatdan 50 yoshgacha bo'lgan bemorlarda erkak jinsining ustunligini kuzatish mumkin ($p < 0,001$). Jismoniy mehnatga layoqatli bemorlar 57 (69,5%) tashkil etadi. Bemorlar anamnezi bo'yicha, jarohat mexanizimini asosiy sababi balandlikdan (90,2%) tik oyoqda, yoki orqa bilan yiqilish tashkil etadi. Avtohalokat natijasida jarohat olish keyingi o'rinda turadi (5,4%). Og'ir jismlarning tushishi (4,4%) bemorlarmizda kuzatildi. Olingan ma'lumotlarni tizimlashtirish uchun AO/Spine tasnifi (A tipidagi A2, A3 sinish turlari) foydalanildi. Bu tasnifga ko'ra, 59 (35,8%) jarohatlar A2, 33 (64,2%) A3 turlarga bo'lindi. Bemorni qabul qilish vaqtida shikastlanish mexanizmi, klinik tekshiruv, bemorlarning umumiy holati, shikastlangan a'zoning qon bilan ta'minlanishi va innervatsiyasi baholandi, Ko'krak pastki (VTh₁₁₋₁₂) va bel (VL₁₋₃) umurtqalarining parchalanib sinishlari bo'lgan bemorni klinik tekshirishda, quyidagi ko'rsatkichlar hisobga olindi: og'riq sindromini kuchini miqdoriy baholash 10 balli vizual analog shkala (VAS) yordamida aniqlandi.

Jarohatlangan umurtqani spondilografiya tekshiruvini o'tkazish eng muxim va hal qiluvchi ahamiyatga ega. Uning asosida tashxis qo'yish va davolash taktikasini aniqlanadi. Spondilografiya standart ikki proyeksiyada yotgan holatda tasvirga olinadi. Sagital spondilografiya bo'yicha segmentar kifotik deformatsiyani, Jon Cobb 1948 yilda ishlab chiqargan usuli bo'yicha aniqlandi. Bu usul bilan bemorni perioperatsion dinamikada kifotik deformatsiyani kuzatish uchun ishlatiladi. Umurtqa tanasining oldingi kolonna balandligini (kompressiya indeksi) H. Vinz (1964) bo'yicha aniqlandi (1-jadval).

Singan umurtqa tanasini H. Vinz va Cobb bo'yicha rentgenologik tekshiruv natijalari

Rentgenologik ko'rsatgichlar							
Parametrlar	Singan umurtqa tanasining kompressiyaindexi (%) (H. Vinz)			Posttravmatik kifotik deformatsiya (Cobb)			Jami
	<10%	10–30%	>30%	<10°	10–20°	>20°	
Jarohat olgan bemorlar soni	35	45	12	20	50	22	92
	37,8%	48,7%	13,5%	21,6%	54%	24,4%	100%
(p<0,05)	33,7% ± 1,0			18,4 ± 1,1°			

H. Vinz bo'yicha kompression indeks (%) o'rtacha $33,7 \pm 1,0\%$ ($p < 0,05$) tashkil qildi. Posttravmatik kifotik deformatsiya (Cobb) o'rtacha $18,4 \pm 1,1$ ($p < 0,05$) ekanligi aniqlandi. Ko'krak pastki ($V_{Th11-12}$) va bel (V_{L1-3}) umurtqalarining parchalanib sinishlarida rentgen tekshiruvining sezuvchanligi 72% (64,5-78,8), o'ziga xosligi (specificity) 69% (58,4-76,1) ($p < 0,05$) tashkil qildi. MSKT orqali shikastlanish turi, uning individual xususiyatlari, suyak bo'laklarining siljishini to'g'ri baholash uchun sagittal, frontal, aksial tekisliklarda 3D rekonstruksiya qilish 92 nafar (100%) bemorda o'tkazildi. pog'onasi sinishlarida sezuvchanlik 99% (95,5-99,9) ($p < 0,05$), o'ziga xoslik (specificity) 99% (95,5-99,9) ($p < 0,05$) tashkil qildi. Murojaat qilgan bemorlarning 15 nafarida (16,3%) MRT tekshiruvini o'tkazildi. Bu tekshiruv orqa miya shikastlanisha o'xshash quydagi simptomlar kuzatildi reflektor siydik tutilishi, qorin sohasida og'riq bo'lgan bemorlarda o'tkazildi. MRT tekshiruvda umurtqa pog'onasi sinishlarida sezuvchanlik 93% (89,2-96,9) ($p < 0,05$), O'ziga xoslik (specificity) 91,5% (84,4-93,8) ($p < 0,05$) tashkil qildi.

Dissertasiyaning «Ko'krak pastki ($V_{Th11-12}$) va bel (V_{L1-3}) umurtqalarini kompression parchalanib (AO/Spine A2, A3) sinishlarida umurtqa pog'onasini davolovchi qurilma va jarrohlik texnologiyalarini kompleks qo'llash» deb nomlangan uchinchi bobidabemorlar asosiy va nazorat guruhiga ajratildi. Asosiy guruhdagi $n=40$ (43,5 %) nafar bemorlarga ko'krak pastki ($V_{Th11-12}$) va bel (V_{L1-3}) umurtqalarini asoratsiz sinishlarini taklif etilgan davolash usuli bo'yicha (№IAP 05898) jarrohlik amaliyoti o'tkazildi. Nazorat guruhdagi $n=52$ (56,5%) nafar bemorlarga esa an'anaviy jarroxlik transpedikulyar fiksator qo'yish amaliyoti bajarildi.


